



SAMARQAND TARIXIDAN LAVHA.

Oriental universiteti Tarix kafedrası

o'qituvchisi Kabulov R. J.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15729909>

ARTICLE INFO

Received: 11th June 2025

Accepted: 15th June 2025

Published: 24th June 2025

KEYWORDS

*an'anaviy shahar, rus
mustamlaka shahri, nurli
kompozitsiya*

ABSTRACT

Ushbu maqolada Samarqandning XVI-XIX asrlarda yuz bergan eng muhim voqealari haqida, shaharsozlikda yuz bergan o'zgarishlar haqida ma'lumotlar berilgan. Rossiya mustamlakachiligi davrida Samarqandning yangi qismining bino qilinishi haqida fikr bildirilgan.

O'rta Osiyo shaharlari orasida Buyuk ipak yo'li markazida joylashgan Samarqand shahrining alohida o'rni va mavqei bor. Samarqand shahri azal-azaldan o'zining go'zal tabiati, bog'rog'larining ko'pligi va fayzi bilan ajralib turgan. Ushbu tarixiy shahar nafaqat savdo va hunarmandchilik markazi, balki ilm-fan va madaniyatning tan olingan markazi edi. Sohirqiron Temur bejizga Samarqandni poytaxt etib belgilamagan edi, Mirzo Ulug'bek shu shahardan turib koinotni kuzatgan. Samarqand xonliklar davrida XVI-XIX asrlarda ham siyosiy jarayonlarda muhim rol o'ynagan.

Muhammad Shayboniyxon hukmronligi davrida Samarqandda ayrim qurilish ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, o'zining nomi bilan ataluvchi madrasa (bizgacha saqlanmagan) qurilgan. Shuningdek, Ko'chkinchixon hukmronligi davrida Registon maydoni qarshisida madrasa bunyod etilgan, keyinchalik Ko'chkinchixonning o'zi ushbu madrasaga dafn etilgan. Bu sulola davrida Samarqandda boy kutubxona bunyod etilgan bo'lib, bu yerda noyob kitoblar saqlanishi bilan birga kitoblarni tarjima qilish, qayta ko'chirish, qo'lyozmalarga nafis miniatura chizish, muqovalash ishlari ham amalga oshirilgan.

XVI asrlarda Samarqand ilm-fan markazi sifatida mavqeini saqlab qoldi. Bu davrda tarix, tibbiyot, adabiyot fanlari ayniqsa rivoj topdi.

Shayboniylar hukmronligi davrida Samarqand va uning atrofida sun'iy sug'orish ishlari yaxshilandi, Zarafshon daryosi bo'yida qator suv taqsimlovchi inshootlar qurildi. Samarqand atrofida uzumning seroblighi may va sharob tayyorlashning rivojlanishiga olib kelgan. Manbalarda aytilishicha, Samarqand bog' va uzumzorlar bilan o'ralgan bo'lib, ular ayrim joylarda bir necha chaqiringa borardi. Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarida samarqandlik yirik zamindor Xo'ja Abdulmatkarim xo'jaligi tasvirlanadi. Uning shahar atrofidagi bog'laridan olinadigan hosilning yarmidan ko'pi musallas qilingan, qolganidan uzum shinnisi tayyorlangan. Shaharda uzum saqlanadigan maxsus binolar bo'lgan.

Ashtarxoniy hukmdorlari davrida hokimlik qilgan Yalangto'sh Bahodir hokimligi davrida Samarqandda qurilish ishlari keng miqyosda olib borilgan. U Ulug'bek qurdirgan binokorlik majmuasini buzmaganda holda, vayronaga aylangan xonaqoh va karvonsaroy o'rnida Sherdor va Tillakori madrasalarini qurdiradi. Tillakori madrasasining masjidi ichkarisida sarflangan oltinning o'ziga bir katta obida qurish mumkin bo'lgan.

XVIII asrga kelib Samarqand oldingi ulug'vor qiyofasini yo'qotdi, urushlar shaharni vayron qildi, shaharni suv bilan taminlagan Raboti Xo'jabandiy to'g'oni buzib tashlangan, shahar suvsiz qurib qolgan edi. Mahalliy tarixchilar va rus sayyohlarining ma'lumotlarini

umumlashtirsak, mang'it hukmdorlari Buxoro taxtini egallagan davrda Samarqand huvillagan, suvsiz va odamsiz qolgan, shahardagi binolar harobo holga kelgan edi. Mang'itlar sulolasi davrida Samarqand shahri aholisi asta-sekin to'ldirib borilgan. XIX asrning 40 yillarida shaharda taxminan 25-30 ming kishi istiqomat qilgan [1].

Amir Shohmurod hukmronligi davrida Samarqandda ko'plab madrasa, masjidlar, xonaqohlar va turli binolar qurilgan. Samarqand va Buxorodagi bo'shab qolgan madrasalar bu davrda yana ilmi toliblar bilan gavjum bo'lgan. XIX asr o'rtalarida Samarqand va uning atrofidagi hududlarda 155 ta masjid va 22 ta madrasa faoliyat olib borgan. Mazkur muassasalar xalqni islom aqidalari va tushunchalari hamda hukmron tabaqa manfaatlariga mos asosda tarbiyalovchi maskanlar edi. Shuningdek, Amir Shohmurod hukmronligi davrida iqtisodiy hayot sezilarli darajada jonlanadi. XVIII asrning o'rtalaridan to XIX asrning so'nggi choragigacha Samarqand mintaqada hunarmandchilik ishlab chiqarishi va savdoning yirik markazi bo'lib qoldi.

Samarqand rus imperiyasining tarkibiga o'tgach shaharning "eski shahar" qismidagi hayot ma'muriy jihatdan kata o'zgarishlarga uchramadi. Avvalgidek shahar mahallalarga bo'lingan va mahallalar guzarlarga bo'lingan holda boshqarilib kelingan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Samarqand 4 ta yirik mahalladan iborat bo'lgan [2].

Imperiya boshqaruvi o'rnatilgach, Samarqandga Yevropa shaharsozligi uslublari kirib keldi. Mahalliy va rus me'morchilik uslublari qorishib shaharning yangi qismida o'ziga xos uslub shakllana boshlandi. Samarqandning "yangi qismi" Toshkent va Andijon singari uch nurli kompozitsiya uslubida qurilgan. Bunda shaharda harbiy gubernator qarorgohi qurilib, undan kengayib boruvchi ko'chalar bunyod etilgan. Bu uch ko'chalar: Kaufman, Aleksandrovskeya va Nikolayevna deb nomlandan. Shahar tashqarisidan 2 ta ko'cha o'tgan bo'lsa, 2 ta ko'cha shahar ichidan o'tgan. Shahar ko'chalari rus shoirlari, bosqin paytida o'zini ko'rsatgan qo'mondonlar nomlari bilan atalgan. Toshkentning yangi qismi bilan solishtirsak, u yerda ham shahar qurilishi radiusli halqa- nur halqa sxemasida tuzilganligiga guvoh bo'lamiz. Samarqand shahrining qurilishidagi o'ziga xos jihati Turkistonning boshqa shaharlarida uchramaydigan xiyobon shaklidagi bulvar maydonining qurilganligidir [3].

Zarafshon harbiy okrugi markazida rejali ravishda harbiy va ma'muriy markaz binolari majmuasi shakllangan. Shaharda davlat binolari, kazarmalar, harbiy omborlar, harbiy va fuqaro binolari, kasalxonalar, o'quv yurtlari va madaniy-ma'rifiy inshootlar (kutubxona va teatrlar) qurilgan. Bu "yangi shahar" binolari asosan harbiylar va amaldorlarga xizmat qilgan. Harbiy qurilishning asosiy qismi qal'a atrofida joylashgan. Keyinchalik shahar kengayishi natijasida ulardan ba'zilar boshqa joylarga ko'chirilgan. Asosan harbiy qal'a Abramov bulvari va Nikolayevskaya ko'chalari kesishgan joyda edi. Qurilishning davomi sifatida urgut ko'chasida ham harbiy qal'a va harbiy gospital vujudga keldi. Shundan so'ng yangi shahar me'moriy qiyofasi o'zgardi. To'g'ridan to'g'ri keng ko'chalar bunyod etildi, yo'ldan alohida yo'laklar ajraldi, ko'chalarda ekilgan daraxtlarni sug'orish uchun ariqlar o'tkazildi [4].

Yangi shaharda jami 25 ta ko'cha bo'lgan, ko'chalarning aksariyati tekislanib tosh yotqizilgan. Ko'chalarning har ikki tomoniga ikki qator qilib terak, ayrim joylarda qayrag'och, akatsiya va zarang daraxtlari ekilgan. Daraxtlar uchun ariqlar kavlangan. Shahar ko'chalari kerosin lampalar bilan yoritilgan. Samarqandning yangi shahrining bosh rejasi 1875-yilda ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, Samarqand shahri ham O'rta Osiyoning boshqa shaharlari kabi ikki qismdan: eski va yangi shahardan iborat bo'lgan. Shahar asosiy kompozitsiyasi bo'lgan qo'rg'on atrofi 31,2 gektar edi [5].

Xulosa. Samarqand Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan, dunyo ilm-fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan, Sug'd sivilizatsiyasi markazi bo'lgan qadimiy va buyuk tarixga guvoh bo'lgan shahar. Samarqand vohasi yodgorliklarning ko'pligi, xilma-xil va turli davrlarga oidligi bilan O'rta Osiyo madaniyati tarixida muhim o'rin tutgan. Ko'plab imperiyalar markazi bo'lgani, qulay geografik joylashuvi va iqtisodiy salohiyati shahar taraqqiyotiga ulkan tasir etgan. Ushbu omillar Samarqandda shaharsozlik, san'at va

madaniyatning rivoji uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Shu bois bugungi kunda Samarqand qadimiy tarixi va me'moriy yodgorliklari tufayli butun dunyo tan olgan "ochiq osmon ostidagi muzey-shahar"ga aylangan.

Adabiyotlar.

1. Toshkenboyev N.X., Isamiddinov M.X. Samarqand qadimiy davrdan boshlab to XIII asr boshlarigacha (Afrosiyob matireallari asosida).- Samarqand, 1995. 25-b.
2. Samarqand tarixi, IX jild. - Toshkent "O'zbekiston" 2023. 187-b.
3. Samarqand tarixi, IX jild. - Toshkent "O'zbekiston" 2023. 234-b.
4. O'zMA 5 fond, Ro'yxat-1, Ish-1242, 1-2 varaqlar.
5. Нильсен В.А. У истоков современного градооостронтельства Узбекистана... С.97 t farmoni

